



DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHDA QARZGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA KAFOLAT JAMG'ARMASINING FAOLIYAT YO'NALISHLARI

THE AREAS OF ACTIVITY OF THE DEBT SERVICE GUARANTEE FUND IN THE MANAGEMENT OF PUBLIC DEBT

¹**Komolov Odiljon
Saufidinovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya" kafedrasi
professori, i.f.n. **ORCID:** 000-0002-0289-8673,
G-mail: odiljonuzb@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat qarzlarini boshqarish tizimida muhim o'rin tutuvchi Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasining maqsadi, vazifalari va faoliyat yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda davlat qarzining o'sish tendensiyalari hamda Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasining daromadlari va xarajatlarning tahlili amalga oshirilgan.

Eng. - The article highlights the purpose, tasks, and activity directions of the State Debt Service Guarantee Fund, which plays an important role in the public debt management system of the Republic of Uzbekistan. In addition, the study analyzes the growth trends of public debt in Uzbekistan and examines the revenues and expenditures of the State Debt Service Guarantee Fund.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ davlat qarzi, Kafolat jamg'armasi, moliyaviy barqarorlik, qarz siyosati, tashqi qarz, budjet defitsiti, qarz boshqaruvi.
❖ public debt, Guarantee Fund, financial stability, debt policy, external debt, budget deficit, debt management.

Kirish.

Davlat qarzi mamlakatning makroiqtisodiy tizimida muhim rol o'ynaydi. Buning sababi shundaki, davlat qarzining shakllanishi, uni xizmat qilish va qaytarish jarayonlari davlat moliyasi, pul muomalasi, investitsion muhit, iste'mol tuzilmasi hamda davlatlararo hamkorlik rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Davlat qarzining yuzaga kelishiga asosiy sabab davlat olib borayotgan siyosatning daromad va xarajatlarning muvozanatini ta'minlay olmasligidir. Tarixiy va zamonaviy iqtisodiy amaliyot shundan dalolat beradiki, deyarli barcha mamlakatlar o'z rivojlanish jarayonida davlat qarzi bilan bog'liq

muammolarni boshdan kechirgan, ya'ni davlat qarzining mavjudligi iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, davlatlar budjet xarajatlarini moliyalashtirishda qarz siyosatidan keng foydalanadilar. Shu sababli, davlat qarzi har qanday rivojlangan mamlakat moliyaviy xo'jaligining odatiy iqtisodiy hodisasi sifatida qaraladi. Xususan, ko'plab mamlakatlarda davlat qarzi bilan bog'liq muammolar 2019-yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi oqibatida jiddiy kuchayib, byudjet taqchilligi, fiskal barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimiz amaliyotida 2024-yil yakunlari

bo'yicha davlat qarzi hajmi 40,2 mlrd. AQSh dollarini yoki YaIMga nisbatan 35 foizni tashkil etgani, ushbu ko'rsatkichning 2020-yilga nisbatan 172,1 foizga muttasil o'sish tendensiyasi namoyon bo'lgani davlat qarzini samarali boshqarish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda [10].

Ta'kidlash lozimki, davlat qarzini samarali boshqarish makroiqtisodiy va fiskal siyosatni tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son Qonunining 35-moddasida "Davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan oltmish foizdan oshmasligi kerak" deb keltirilgan [1]. Shu sababli barqaror makroiqtisodiy siyosatning mustahkam institutsional asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday institutsional asoslar qatoriga davlat qarzining barqarorligini ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatida davlat qarzini kafolatlash jamg'armasini shakllantirish va uni samarali boshqarish tizimini joriy etish kiradi. Mazkur jamg'arma nafaqat moliya bozorida ishtirokchilarning davlat qimmatli qog'ozlariga investitsiya kiritishdagi ishonchini mustahkamlaydi hamda noaniqlik darajasini minimallashtiradi, balki davlat qarziga xizmat ko'rsatish jarayonlarini tizimli ravishda moliyalashtirish, ularning uzluksizligini ta'minlash va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida so'ndirilishini kafolatlovchi muhim moliyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

J. Buchanan tadqiqotida davlat qarzi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va uning turlicha talqin qilinishi tanqidiy tahlil qilinadi. Olimning fikricha, davlat qarzi ko'pincha noto'g'ri talqin qilinib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, holbuki u iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim moliyaviy instrument bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buchanan qarzni to'g'ri boshqarish va uni samarali fiskal siyosat bilan

uyg'unlashtirish davlat moliyasining barqarorligi uchun zarur shart ekanligini ta'kidlaydi [3].

Ghosh, Kim, Mendoza, Ostry va Qureshi tadqiqotida rivojlangan mamlakatlarda "fiskal charchoq" (fiscal fatigue), fiskal bo'shliq (fiscal space) va qarz barqarorligi tushunchalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, qarzning yuqori darajasida hukumatlarning qo'shimcha fiskal choralar ko'rish qobiliyati pasayadi va bu barqarorlikni xavf ostiga qo'yadi [4].

A. Pienkowski davlat qarzi va uning strukturaviy tuzilishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotda davlat qarzlari uchun barcha mamlakatlarga bir xil qo'llanishi mumkin bo'lgan maksimal chegara mavjud emasligi, aksincha ushbu ko'rsatkichlar rivojlangan, rivojlanayotgan va past darajada rivojlangan mamlakatlar uchun sezilarli farq qilishini isbotlab bergan. Muallifning asosiy tavsiyalaridan biri shundan iboratki, daromad darajasi past mamlakatlar uchun qarzlarni milliy valyutada jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lsa, rivojlangan davlatlar uchun esa qarzning maksimal darajasini oshirish maqsadida YaIMga bog'langan davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilish samarali yo'l sifatida tavsiya etiladi [5].

P. Leao maqolasida qarz hajmining ortishi soliq yuki oshishiga, davlatning defolt holatiga tushib qolish xavfiga va inflyatsiya jarayonlarning kuchayishiga olib kelishini ta'kidlanadi. Shu bilan birga, muallif ushbu salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun samarali fiskal siyosat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ilgari suradi [6].

E. Beqiraj va S. Fedeli tomonidan olib borilgan tadqiqotda Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga (OECD) a'zo 21 mamlakat misolida hukumatlarning qarz/YaIM nisbatining oshib borishiga bo'lgan munosabatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qarz yuki ortishda davom etgan sharoitda davlatlar tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan fiskal va institutsional chora-tadbirlar majmuasi hamda davlat qarzi

va budjet defitsiti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (korrelyatsiya) tizimli ravishda ilmiy asosda tahlil etilgan [7].

Ahmed va Rogerslar fikricha, davlat qarzi va budjet taqchilligi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni hisobga olish zarur. Maqolada budjet va tashqi savdo defitsiti o'rtasidagi bog'liqlik present value constraints asosida asoslab berilgan [8].

Baldi va Staehr tadqiqotida Yevropa qarz inqirozi sharoitida davlatlarning fiskal siyosatlari 2000-2014-yillar kesimida tahlil qilingan. Olimlarning fikricha, davlat qarzi va budjet defitsiti darajasi ortib borishi mamlakatlarni fiskal siyosatini choralarni takomillashtirishga undagan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Yevropa mamlakatlarida qarz yukining oshishi fiskal siyosatning moslashuvchanligini kuchaytirgan bo'lsa-da, ayrim davlatlarda bu jarayon iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib kelgan. Shu bois, mualliflar qarz/YaIM nisbatining yuqori darajasi sharoitida fiskal siyosat mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlashadi [9].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat qarzlarini boshqarish tizimi hamda Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasining faoliyati tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida davlat qarzi hajmi, uning tarkibi, tashqi va ichki qarz dinamikasi, shuningdek Kafolat jamg'armasining daromadlari va xarajatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sahifasidagi ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat qarzi bu mamlakatning jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro

tashkilotlar va boshqa xalqaro huquq sub'yektlari oldidagi moliyaviy majburiyatlari majmui bo'lib, ular, jumladan, davlat kafolatlari asosida ham shakllanishi mumkin. Davlat qarzi mamlakatning davlat mulki bilan to'liq ta'minlanadi hamda davlat organlari tomonidan qarzni qoplash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha zarur choralar amalga oshiriladi.

Davlat qarzini boshqarish keng ma'noda mamlakatning iqtisodiy siyosatining ajralmas tarkibiy elementi bo'lib, u davlatning qarz oluvchi sifatidagi faoliyatini tizimli ravishda tashkil etishni anglatadi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

davlat qarzi siyosatini shakllantirish va uni makroiqtisodiy barqarorlik strategiyalari bilan uyg'unlashtirish;

davlat qarzi chegaralarini belgilash hamda byudjet taqchilligi va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bilan muvofiqlashtirish;

davlat qarzining iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, investitsiya faolligi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash;

umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini baholash va qarz resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasida davlat qarzini samarali boshqarish va uning hajmini nazorat qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2023-yil 11-sentyabrda Prezident tomonidan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi 158-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu strategiyada davlat qarzini boshqarish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Strategiyada yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, aholi jon boshiga daromadlarni ko'paytirish, inflyatsiyani pasaytirish, shuningdek, pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini muvofiqlashtirish orqali 2030-yilga kelib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ushlab turish ko'zda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar orqali davlat

qarzini samarali boshqarish va fiskal barqarorlikni ta'minlash rejalashtirilgan.

Davlat qarzi miqdori va iqtisodiy ahvol o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham bevosita emas. Yuqori qarz darajasi avtomatik tarzda iqtisodiy barqarorlikning pasayishiga olib kelmaydi; muhim jihat – qarz mablag'larini

samarali boshqarish va ularni iqtisodiy o'sishga yo'naltirishdir. Shu nuqtai nazardan, davlat qarzi iqtisodiy rivojlanish strategiyasining vositasi sifatida qaralishi lozim. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekistonda davlat qarzini rivojlanish ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston tashqi qarzi to'g'risidagi ma'lumot [10]

№	Ko'rsatkichlar	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda
	DAVLAT QARZI	26 323	100%	29 231	100%	34 927	100%	40 215	100%
	YaIMga nisbatan foizda	34,0%		32,4%		34,4%		35,0%	
I	TASHQI QARZ	23 582	90%	25 914	89%	29 639	85%	33 726	84%
	YaIMga nisbati	30,5%		28,8%		29,2		29,3%	
1.1.	qat'iy belgilangan foiz stavkada	13 306	51%	13 815	47%	15 801	45%	17 943	45%
	o'zgaruvchan foiz stavkada	10 124	38%	11 955	41%	13 636	39%	15 645	39%
	foizsiz	153	1%	144	0%	201	1%	138	0%
1.2.	milliy valyutada denominatsiya qilingan	415	2%	401	1%	547	2%	561	1%
	chet el valyutasida denominatsiya qilingan	23 167	88%	25 513	87%	29 092	83%	33 165	82%
1.3.	qisqa muddatli	0	0%	0	0%	100	0%	0	0%
	bir yil ichida to'liq so'ndiriladigan uzoq muddatli	17	0%	230	1%	786	2%	125	0%
	bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	23 565	90%	25 684	88%	28 752	82%	33 601	84%
II	ICHKI QARZ	2 741	10%	3 317	11%	5 288	15%	6 489	16%
	YaIMga nisbati	3,5%		3,7%		5,2%		5,6%	
2.1.	qat'iy belgilangan foiz stavkada	1 469	6%	1 703	6%	3 674	11%	5 122	13%
	o'zgaruvchan foiz stavkada	295	1%	224	1%	259	1%	122	0%
	foizsiz	976	4%	1 390	5%	1 355	4%	1 245	3%
2.2.	milliy valyutada denominatsiya qilingan	1 158	4%	1 831	6%	1 860	5%	3 072	8%
	chet el valyutasida denominatsiya qilingan	1 583	6%	1 487	5%	3 428	10%	3 417	8%
2.3.	qisqa muddatli	286	1%	703	2%	170	0%	1 164	3%
	bir yil ichida to'liq so'ndiriladigan uzoq muddatli	106	0%	188	1%	1 351	4%	1 481	3%
	bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	2 349	9%	2 426	8%	3 767	11%	3 844	10%

O'zbekistonning umumiy davlat qarzi 2021-yilda 26,3 mln dollardan 2024-yilda 40,2 mln dollarga oshgan. Bu 4 yil ichida 53 foizga o'sishni bildiradi, ya'ni davlat qarzi tez sur'atlarda oshib bormoqda. Biroq YaIMga nisbatan ko'rsatkich barqaror bo'lib, 2021-yilda 34 foizdan 2024-yilda 35 foizgacha o'sgan. Bu esa qarzning iqtisodiy barqarorlikka nisbatan sezilarli darajada xavf tug'dirmayotganini ko'rsatadi.

Tashqi qarz mamlakatning umumiy qarzining asosiy qismini tashkil etadi. 2021-yilda 23,6 mln dollar (90 foiz), 2024-yilda esa 33,7 mln dollar (84 foiz) bo'lib, qarzning asosiy qismi xalqaro moliya bozorlaridan jalb qilinadi. YaIMga nisbati 30,5 foizdan 29,3 foizgacha pasaygan, bu tashqi qarzning iqtisodiy barqarorlik bilan uyg'unligini bildiradi.

Qat'iy belgilangan foiz stavkali qarz 2021-yilda 51 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 45 foizgacha kamaygan. Bu qarzning moliyaviy barqarorligini oshirishga yordam beradi. O'zgaruvchan foiz stavkali qarz 38 foizdan 39 foizgacha oshib, xalqaro moliya bozoridagi o'zgarishlarga sezgirlikni ko'rsatadi. Foizsiz qarz esa minimal ulushni (0-1 foiz) tashkil qiladi.

Milliy valyutada denominatsiya qilingan tashqi qarz 1-2 foizni tashkil etadi, qolgan 82-88 foiz xorijiy valyutada. Bu holat tashqi qarzning valyuta kursi o'zgarishiga nisbatan sezgirlikni bildiradi. Shu sababli, milliy valyutaning qadrsizlanishi qarz yukini oshiradi va moliyaviy risklarni kuchaytiradi.

Qisqa muddatli tashqi qarz deyarli mavjud emas, aksariyati bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli qarz (82-90 foiz) bo'lib, bu qarzning barqarorligini ta'minlaydi va moliyaviy majburiyatlarni oldindan rejalashtirishga imkon beradi.

Ichki qarz 2021-yilda 2,741 mln dollarni, 2024-yilda esa 6,489 mln dollarni tashkil qilgan. YaIMga nisbati 3,5 foizdan 5,6 foizgacha oshgan. Ichki qarzning oshishi ichki moliya bozorining faoliyatini va davlatning ichki

manbalarni samarali jalb qilish qobiliyatini ko'rsatadi.

Qat'iy belgilangan foiz stavkali ichki qarz 1,5 mln dollardan 5,1 mln dollarga oshgan, o'zgaruvchan foiz stavkasi esa kamaygan. Bu ichki qarzning moliyaviy barqaror shartlarda jalb qilinishini va foiz riskini kamaytirishni bildiradi. Foizsiz qarz ulushi 3-5 foizni tashkil etadi.

Milliy valyutada denominatsiya qilingan ichki qarz 4 foizdan 8 foizgacha, chet el valyutasida denominatsiya qilingan ichki qarz esa 6 foizdan 8 foizgacha o'sgan. Shu bilan birga, ichki qarz ham valyuta kursi o'zgarishiga nisbatan ma'lum darajada sezgirlikni ko'rishimiz mumkin.

Qisqa muddatli ichki qarz 1-3 foizni tashkil qiladi, aksariyati uzoq muddatli qarzdir. Bir yildan ortiq muddatda to'lanadigan uzoq muddatli qarzning ulushi 10-11 foiz bo'lib, bu ichki qarzni boshqarishni osonlashtiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

Umumiy qarz tarkibi uzoq muddatli va qat'iy foiz stavkali, bu moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Tashqi qarz ulushi yuqori bo'lib, valyuta risklariga sezgir, ichki qarz esa oshib borayotgan ichki moliyaviy imkoniyatlarni aks ettiradi. Samarali boshqaruv orqali davlat qarzi iqtisodiy rivojlanish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin.

Davlat qarzining o'sishi bilan bir qatorda, uning qaytarilishi, foiz to'lovlari va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha alohida kafolat jamg'armasining, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki qarz bo'yicha to'lovlarning kafolatlangan manbadan amalga oshirilishi investorlar, kreditorlar va xalqaro moliya institutlari uchun qo'shimcha ishonch omilini yaratadi. Natijada, mamlakatga xorijiy sarmoya oqimi ortadi, tashqi moliyaviy resurslar yanada qulay shartlarda jalb qilinadi

va xalqaro moliya bozorlaridagi pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasi davlatning tashqi va ichki qarzlarini boshqarishda muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Bu jamg'arma orqali qarz majburiyatlarini barqaror bajarish ta'minlanadi, xalqaro moliya bozorlarida mamlakatning imiji mustahkamlanadi va iqtisodiy xavflar sezilarli darajada kamayadi.

Mamlakatimizda 2020-yil 21-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasining Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaror qabul qilingan [2]. Ushbu jamg'arma yuridik shaxs emas, ya'ni alohida tashkilot sifatida emas, balki vazirlik tarkibida faoliyat yuritadi.

Kafolat jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Xizmat ko'rsatishni ta'minlash - agar davlat qarzi hisobiga moliyalashtirilgan loyiha va dasturlar bo'yicha qarzidor tashkilot yoki qayta moliyalashtiruvchi bank o'z qarz to'lovlarini (asosiy qarz, foiz, penya, jarima) vaqtida va to'liq bajarmasa, jamg'arma mablag'lari orqali bu qarz to'lovlarini qoplash amalga oshiriladi.

Budjet himoyasi - agar jamg'arma mablag'lari yetarli bo'lmasa, yetmay qolgan qismini O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari evaziga to'ldirish.

Qarzdordan undirish - jamg'arma mablag'lari evaziga to'langan qarzdorlik, penya va jarima to'lovlari keyinchalik qarzidor tashkilot yoki bank tomonidan undiriladi.

Mablag'larni shakllantirish va boshqarish - jamg'arma mablag'lari investitsiya qilish, depozitga qo'yish, likvid qimmatli qog'ozlarni sotib olish va boshqa yo'llar bilan samarali boshqarilishi mumkin.

Hisob-kitob va hisobot - jamg'arma faoliyati, mablag'lar kirimi va chiqimlari, qoplangan qarzidorlik, undirilgan mablag'lar bo'yicha hisobot yuritiladi.

Jamg'arma quyidagi holatlarda faollashadi:

Loyiha yoki dastur davlat qarzi asosida moliyalashtirilgan bo'lishi kerak.

Qarzidor tashkilot yoki bank to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq bajarmaganda.

Jamg'arma to'lovlar qila oladigan mablag' mavjud bo'lsa, avval jamg'arma mablag'lari ishlatiladi; agar yetmasa, subsidiya sifatida davlat budjeti mablag'lari ko'rib chiqiladi.

2-jadval

Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasining daromadlari, transfertlari va xarajatlari dinamikasi (2020-2024-yillar, mlrd. so'm) [10]

Davr	Daromadlar	Transfertlar	Xarajatlar
2020-yil	59 444,6	-	-
2021-yil	495 565,6	227 855,7	40 549,4
2022-yil	368 408,5	-	-
2023-yil	369 015,0	-	138 253,1
2024-yil	974 143,0	-	116 558,5

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-yilda Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasining daromadlari jami qarzning chorak qismini ham qoplamagan (0,25) va ushbu holat davlat qarzi bosimining

yuqoriligidan dalolat berado. 2021-yilda esa daromadlar hajmi keskin oshib, qarzni 1,8 marta qoplash imkoniyati yuzaga kelgan.

Keyingi yillarda (2022-2023) daromadlar biroz pasaygani va qarzning oshishi natijasida

nisbat yomonlashgan, hatto 2023-yilda daromad qarzni qoplashga yetmagan (0,88). Biroq 2024-yilda daromadlarning keskin oshishi hisobiga qarz bosimi kamaygan va jamg'arma daromadlari jami qarzni deyarli 2 barobar qoplashga yetgan.

Shunday qilib, 2020-2024-yillar oralig'ida davlat moliyasida keskin tebranishlar kuzatilgan bo'lsa-da, oxirgi yilda fiskal barqarorlik sezilarli darajada yaxshilangan. Umuman olganda, qisqa muddatli tebranishlarga qaramay, 2024-yilga kelib, davlat moliyasi nisbatan barqarorlashgan, biroq qarz dinamikasining yildan-yilga ortib borishi davlat qarzini boshqarish muammosini to'liq bartaraf etilganligidan dalolat bermaydi.

Xulosa va takliflar.

Davlat qarzining hajmi ortib borar ekan, uni qaytarish, foiz to'lovlarini amalga oshirish hamda barcha moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish masalasi yanada dolzarb tus oladi. Chunki, qarz bo'yicha to'lovlarning uzluksiz va kechiktirilmasdan bajarilishi mamlakatning xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchlilik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Agar qarz xizmatiga oid majburiyatlar kechiktirilsa yoki bajarilmasa, bu nafaqat mamlakatning kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki kelgusida xalqaro kapital bozorlaridan mablag' jalb qilish imkoniyatlarini ham sezilarli darajada

cheklaydi.

Shu sababli, davlat qarzini boshqarish tizimida qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha alohida kafolat jamg'armasini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Bunday jamg'arma qarz to'lovlari uchun zarur bo'ladigan mablag'larni oldindan yig'ib borish va zaxiralash imkonini beradi. Bu esa davlat byudjetining yillik daromadlariga yoki kutilmagan iqtisodiy vaziyatlarga bog'liq holda qarz majburiyatlarini bajarishda uzilishlarning oldini oladi.

2020-2024-yillar davrida jamg'armaning qarz va daromadlar dinamikasi o'zgaruvchan bo'lgan. 2020-yilda daromadlar qarzni qoplashga yetmagan bo'lsa, 2021-yilda katta o'sish hisobiga vaziyat sezilarli darajada yaxshilangan. 2022-2023-yillarda esa qarzning ortishi va daromadlarning pasayishi natijasida nisbiy imkoniyat zaiflashgan, hatto 2023-yilda daromad qarzdan kam bo'lgan. 2024-yilda esa daromadlarning keskin oshishi hisobiga qarzni qoplash imkoniyati ancha mustahkamlangan.

Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha Kafolat jamg'armasi davlatning tashqi va ichki qarzlarini boshqarishda muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Bu jamg'arma orqali qarz majburiyatlarini barqaror bajarish ta'minlanadi, xalqaro moliya bozorlarida mamlakatning imiji mustahkamlanadi va iqtisodiy xavflar sezilarli darajada kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi O'RQ-836-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasining Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 573-son qaror. 2020-yil 21-sentabr.
3. Buchanan, J.M., 1966. The icons of public debt. *J. Finance* 21 (3), 544-546.
4. Ghosh, A.R., Kim, J.I., Mendoza, E.G., Ostry, J.D., Qureshi, M.S., 2013a. Fiscal fatigue, fiscal space and debt sustainability in advanced economies.
5. Pienkowski A. Debt Limits and the Structure of Public Debt // *Journal of Globalization and Development*, vol. 8, no. 2, 2018, pp. 20170018. <https://doi.org/10.1515/jgd-2017-0018>.
6. Pedro L. Is a very high public debt a problem? // *Levy Economics Institute of Bard College, Annandale-on-Hudson, NY. No. 843, 2015.*

7. Elton B., Silvia F. *Public debt sustainability: An empirical study on OECD countries* // *Journal of Macroeconomics*, vol. 58 (2018) 238-248.
8. Ahmed, S., Rogers, J.H., 1995. *Government budget deficits and trade deficits Are present value constraints satisfied in long-term data?* *J. Monet. Econ.* 36 (2), 351-374.
9. Baldi, G., Staehr, K., 2016. *The European debt crisis and fiscal reactions in Europe 2000-2014.* *Int. Econ. Econ. Policy* 13 (2), 297-317.
10. www.imv.uz – Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sahifasi.